

**YOSHLAR FUQAROLIK MADANIYATINING SIYOSIY AKSIOLOGIK
TAHLILI**

**ПОЛИТИКО-АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГРАЖДАНСКОЙ
КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ**

**POLITICAL-AXIOLOGICAL ANALYSIS OF YOUTH CIVIC
CULTURE**

Abdullayev Barxayotjon Bo'riyevich,

Toshkent Davlat transport universiteti

"Ijtimoiy fanlar" kafedrası dotsenti v.b.,

siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: abdullayev_b@tstu.uz

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-9266-0924>

+998916855528

Annotatsiya: Maqolada siyosiy madaniyat va fuqarolik madaniyat tushunchalarining turli talqinlari va ta'riflari qiyosiy tahlil qilingan. Fuqarolik madaniyatining beshta mezonlari asosida O'zbekiston yoshlarining fuqarolik madaniyati xususiyatlari sotsiologik so'rovnoma natijalari asosida siyosiy aksiologik tahlil qilingan va tegishli xulosalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: siyosiy madaniyat, fuqarolik madaniyati va uning mezonlari, fuqarolik jamiyati, yoshlarga xos fuqarolik madaniyati va qadriyatlari.

Аннотация: В статье сравниваются различные трактовки и определения понятий политическая культура и гражданская культура. На основе пяти критериев гражданской культуры проведен политико-аксиологический анализ гражданской культуры молодежи Узбекистана по результатам социологического опроса и представлены соответствующие выводы.

Ключевые слова: политическая культура, гражданская культура и ее критерии, гражданское общество, гражданская культура и ценности молодежи.

Abstract: The article compares various interpretations and definitions of the concepts of *political culture* and *civic culture*.

Based on five criteria of civic culture, a politico-axiological analysis of the civic culture of youth in Uzbekistan was conducted using the results of a sociological survey, and the corresponding conclusions are presented.

Keywords: political culture, civic culture and its criteria, civil society, civic culture and values of youth.

Kirish (Introduction): Siyosiy fanlarda fuqarolik madaniyati tushunchasiga qiziqishning ortishi asosan yangi davrning ikkita siyosiy hodisasi bilan bog'liq: birinchisi, siyosiy inqiloblar (masalan, Fransuz inqilobi, Parij Kommunasini va Rossiyadagi Oktabr davlat to'ntarishi), ikkinchidan, Yevropada Birinchi va Ikkinchi Jahon urushlari orasidagi davrda demokratiyaning qulashi (Germaniyada Veymar Respublikasi) bilan bog'liq bo'ldi. Fuqarolik madaniyatining ahamiyati to'g'risida so'z yuritganda, Braziliyaning San Paulu universiteti siyosiy fanlar bo'yicha doktor, professori Xose Alvaro Moyzes "Demokratlar bo'lmasa, demokratiya bergan va'dalarini bajara olmaydi... Xalq uchun xalqning, to'g'ridan-to'g'ri xalq tomonidan boshqarilmaydigan tizim sifatida - vakillik demokratiyasi jamoatchilikning siyosiy hayotda ishtirokini, vertikal, gorizontaal va ijtimoiy hisobdorlikni talab qiladi. Fuqarolik jamiyatining mavjudligi, mustaqilligi va avtonomiyasi uning ajralmas qismidir. Bundan tashqari, qarashlar va manfaatlar plyuralizmiga bag'rikenglik va keng tarqalgan siyosiy samaradorlik hissi, hukumatga bo'lgan ishonch hamda fuqarolar o'rtasida o'zaro ishonch samarali fuqarolik madaniyatining asosiy elementlari sifatida qaraladi"[1, 243], deb fuqarolik madaniyati, fuqarolik jamiyati va demokratiyaning o'zaro aloqadorligi hamda ahamiyatiga urg'u beradi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili (Literature review): Mumtoz siyosiy madaniyat nazariyasini ishlab chiqqan G.Almond (1911-2002) va S.Verba (1932-2019) ning "Fuqarolik madaniyati. Beshta mamlakatda demokratiya va siyosiy munosabat" nomli asarida siyosiy madaniyatning patriarxal, tobelik va ishtirok turlari, shu turlararo patriarxal-tobelik, tobelik-ishtirok hamda patriarxal-ishtirok ko'rinishidagi aralash siyosiy madaniyat turlari ajratib ko'rsatilgan. Shuningdek asarda, siyosiy madaniyatning barcha turlari va ko'rinishlari qorishig'idan iborat "fuqarolik madaniyati" to'g'risida ham so'z yuritiladi. Fuqarolik madaniyatining shakllanishini mualliflar Buyuk Britaniyada siyosiy madaniyat tarkib topishi jarayoni bilan bog'lab tushuntirgan. Mamlakat siyosiy tarixida an'anaviylik va zamonaviylik tarafdorlar o'rtasida kechgan diskurs natijasida aholi siyosiy madaniyatida tobelikka asoslangan siyosiy madaniyat ishtirokka asoslangan siyosiy madaniyat bilan qorishib fuqarolik madaniyatini keltirib chiqarganiga urg'u beriladi. Mualliflar fuqarolik madaniyatiga "demokratik fuqaro yaxshi ma'lumotga ega bo'lishi va qaror qabul qilishi kerak — masalan, qanday qilib ovoz berish to'g'risida qarorni — vaziyatni ehtiyotkorlik va hisob-kitob bilan ko'rib chiqish, u ilgari surmoqchi bo'lgan manfaatlar va tamoyillarni hisobga olgan holda qabul qilishi kerak. Bunday madaniyat, "kirish"dagi siyosiy tuzilmalar doirasida oqilona ishtirok etishga urg'u beradi, biz uni siyosiy madaniyatning "oqilona-faol" modeli sifatida ta'riflashimiz mumkin...

Avvalo, fuqarolik madaniyati loyol ishtirok etish madaniyatidir. Bunda shaxslar nafaqat siyosiy "kirish"ga yo'naltirilgan, balki ular "kirish"dagi tuzilmalarga va "chiqish"dagi jarayonga ham ijobiy yo'naltirilgan" [2, 52-53], deb ta'rif beradi.

Fuqarodan siyosiy tizim, xususan davlat va fuqarolik jamiyati institutlari qanday siyosiy ishtirokni kutib turibdi hamda fuqaro ularning nazdida nima qilishi kerak? Ikkinchi masala, fuqaro amalda qanday ishtirok etmoqda? Uchinchi masala, fuqaro amalda siyosatda qanday ishtirok eta oladi? Shu savollarga javob berib, olingan xulosalarning mutanosib va muvofiqlarini bir qatorga qo'ysak fuqarolik madaniyatiga ta'rif va tavsif kelib chiqadi.

Rossiyalik siyosiy fanlar doktori, professor M.V.Savva mazkur tushunchani "fuqarolik madaniyati - bu umumiy muammolarni hal qilishda shaxsning hokimiyat va boshqa fuqarolar bilan o'zaro muloqotiga munosabati tizimi va bunday o'zaro munosabatlardagi xulq-atvori ko'rinishi" [3, 83], deb ta'riflaydi.

Rossiyalik yana bir siyosiy fanlar doktori, professor O.V.Omelichkin "Fuqarolik madaniyatining asosiy maqsadi siyosiy hokimiyat va uning institutlari maqbul faoliyatini ta'minlash, ijtimoiy totuvlik hamda siyosiy barqarorlikni ushlab turishdan iborat. U nafaqat hokimiyatning asoslanishi va uning legitimligini, balki fuqarolarning jamoat ishlarini nazorat qilish va boshqarishda real ishtirok etish modellarini ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun bu madaniyat hokimiyatning zaruriy tarkibiy qismi va uning qadriyatini asosiga aylanadi" [4], deb ta'riflaydi.

Tadqiqotchi F.Y.Qodirov "Fuqarolik madaniyati shaxsning muayyan davlatga qonuniy hujjatlar asosida mansubligi natijasida kelib chiqadigan huquq normalari, burchlari, imtiyozlari, majburiyatlari va mas'uliyatlari hamda ularning kafolatlari majmui to'g'risida bilimga egaligi, amaliy faoliyati davomida qo'llashi, foydalanishi va amalga oshirish darajasi bilan belgilanadi" [5], deb ta'riflaydi. Shuningdek, tadqiqotlarda fuqarolik madaniyatini axloqiy normalar bilan bog'lab tushunish ham bor, masalan, tadqiqotchi Z.A.Bozorov bu tushunchaga "fuqarolik madaniyati kishi yurish-turishi me'yorlarining yig'indisi tarzida namoyon bo'ladi. Ba'zi hollarda obraz tarzida inson xarakteridagi qimmatli, e'tiborga molik xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirib namuna, ibrat sifatida xizmat qiladi. Fuqarolik madaniyati insondagi xususiyatlar yoki undagi mavjud xulq-atvor me'yorlari tariqasida emas, balki unga etishmaydigan yoki u xohlagan, istagan o'zini qanday tarzda ko'rmoqchiligini ifodalaydi"[6], deb yondashadi. Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent B.Q.Xodjayev "...fuqarolik madaniyati fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevori, huquqiy demokratik tuzumning asosi sifatida kishilarning moddiy va ma'naviy boyliklarni o'rganish, o'zlashtirish hamda ularni asrab avaylab, kelajak avlodga va o'zi yashayotgan mamlakat hamda jamiyat ravnaqi, istiqboli uchun mehnat qiladigan shaxsning yuksak namunasini anglatadi" [7], deb talqin qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology): Serbiyalik olim, Belgrad universiteti Siyosiy fanlar fakulteti professori M.Beshich fuqarolik madaniyatining bir qator mezonlarini ajratadi: "Fuqarolik madaniyati tushunchasining **birinchi mezon** - siyosatga qiziqish... **ikkinchisi demokratik yo'nalish**... **uchinchisi siyosiy faollik**...

to'rtinchisi -... ijtimoiy ishonch, beshinchisi - liberal yo'nalish" [8, 299-326] larni ajratib ko'rsatadi. Yoshlarda fuqarolik madaniyatining siyosiy-aksiologik tahlili quyidagilarni amalga oshiradi:

- subyekt tomonidan ilgari surilgan asosiy qadriyatlarni tizimlashtiradi;
- siyosiy qadriyatlarning mohiyati va ahamiyatini tahlil etadi;
- qadriyatlarni shkalalashtirish asosida qadriyatlar piramidasini tuzadi;
- tuzilgan piramidadan foydalanib, siyosiy faoliyatning, xususan fuqarolik madaniyatining asosiy g'oyalari, qadriyatlari, maqsadlari, vositalari va kutilayotgan natijalarini ilgari suradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results): yuqorida sanab o'tilgan mezonlardan kelib chiqib O'zbekiston yoshlari siyosiy madaniyatida fuqarolik madaniyati ko'rinishlarini sotsiologik so'rov natijalari asosida siyosiy-aksiologik tahlil qilish mumkin.

Birinchi mezon bo'yicha so'rovnomaning birinchi va ikkinchi savollari yoshlarning siyosatga qiziqishi va uning yo'nalishlariga bag'ishlangan. Yosh respondentlarga "Sizning hayotingizda siyosat qanday o'rin tutadi?" deb berilgan savolga 28,8% - juda muhim, 29,2% - muhim, 34,4% - ahamiyatli, 1,2% - ahamiyati yo'q, 2,8% - bilmayman, deb javob bergan(1-diagramma). Siyosiy jarayonlar yoshlarning hayotida juda muhim va muhim o'rin tutishi yoki ahamiyatli ekanligi, ularning siyosatga qiziqishi darajasi yuqori ekanligini anglatadi.




Diagramma 1

So'rovnomaning ikkinchi savolida yoshlarga "Siyosatning quyida keltirilgan yo'nalishlariga bo'lgan qiziqishingiz darajasini baholab bersangiz" deb murojaat qilingan. Anketa savolida xalqaro siyosat, davlatning tashqi siyosati, davlatning ichki siyosati, mahalliy hokimiyat (viloyat, tuman, shahar) darajasidagi siyosat, bevosita o'z hayotim va faoliyatimga oid siyosiy jarayonlar alohida javoblar ko'rinishida berilib, ularning har biri bo'yicha juda ham qiziqaman, bir oz qiziqaman, unchalik ham qiziqmayman, umuman qiziqmayman, degan variantlardan birini tanlash taklif etilgan. Yoshlarda fuqarolik madaniyatining mezonlaridan biri ularning siyosatga qiziqishi ekan, siyosatning

ayni qaysi darajasi va yo'nalishlariga qiziqish bildirishi fuqarolik madaniyatining xususiyatini ko'rsatadi. Demak, yosh respondentlar davlatning ichki siyosati (45,2%) va mahalliy hokimiyat darajasidagi siyosatga (32,8%) nisbatan kam qiziqish bildirgan.

Mahalliy hokimiyat darajasidagi siyosatga umuman qiziqmayman va unchalik ham qiziqmayman degan respondentlar ulushi 28 %ni tashkil etgan(2-diagramma). Bu yoshlarning mahalliy hokimiyat organlari ishida ishtirokining nisbatan samarasizligi bilan bog'liq hududlardagi siyosiy jarayonlarda fuqarolik madaniyatining nisbatan pastligini ko'rsatadi.




Diagramma 2

Fuqarolik madaniyatining ikkinchi mezoni sifatida e'tirof etilgan demokratik yo'nalish yoshlar siyosiy madaniyati qadriyatlari tizimida aks etgan demokratik qadriyatlarning ustuvorligi orqali namoyon bo'ladi. Tadqiqotda yoshlarga xos siyosiy qadriyatlar tizimini shaxs, jamiyat va davlat darajasidagi qadriyatlar kesimida tahlil qilingan. Jumladan, shaxs hayotida ustuvor bo'lgan siyosiy qadriyatlarga baho berish so'ralganda demokratik qadriyatlar hisoblangan inson huquqlari ustuvorligi va daxlsizligi 57,6%, inson manfaatlari 62,8% respondentlar tomonidan juda muhim deb baholangan.

Fuqarolik madaniyatining uchinchi mezoni bo'lmish siyosiy faollikning yoshlarda qanday darajada ekanligini so'rovnomaning siyosatda ishtirok etish shakli va darajasiga bag'ishlangan 10-savoliga berilgan javoblar asosida kuzatish mumkin. Saylovlarda ovoz berish, saylovlarda o'z nomzodini ilgari surish, markaziy davlat hokimiyati organlariga yozma yoki og'zaki murojaat qilish, mahalliy davlat hokimiyati organlariga yozma yoki og'zaki murojaat qilish, ijtimoiy-siyosiy tadbirlarda ishtirok etish, ommaviy murojaatlarni imzolash siyosiy ishtirokning bevosita va bilvosita shakli sifatida javoblarda aks etdi hamda har bir ishtirok shakli bo'yicha faollik ko'rsatib qatnashaman, qisman qatnashaman, imkon bo'lsa qatnashaman, qatnashmayman, degan variantlar berildi. Ushbu anketa savoliga berilgan javoblar tahlili shuni ko'rsatadiki, yoshlarning bevosita siyosiy ishtirok shakllariga nisbatan bilvosita

siyosiy ishtirokda faollik ko'rsatib qatnashishga moyilligi saylovlar(Prezidentlik, parlament, mahalliy kengash va mahalla oqsoqoli)da ovoz berishda faollik ko'rsatib qatnashaman, degan variantni respondentlarning 51,6% tanlagan. Bu ishtirokning barcha yuqorida sanab o'tilgan shakllariga qaraganda eng yuqori ko'rsatkich bo'lgan.

Yoshlar orasida onlayn siyosiy ishtirokning shakllariga munosabat so'rovnomaning 11-savolida siyosatda ishtirok etishning onlayn shakllari bo'lgan - Prezidentga murojaat virtual qabulxonasi(portal), "Mening fikrim" jamoaviy murojaatlar portali, "Ochiq byudjet" portali, Yoshlar portali, Davlat organlarining ishonch telefonlari, Normativ-huquqiy hujjat loyihalarini muhokamasi portali, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, ijtimoiy tarmoqlarda(Telegram, Facebook, Instagram va shu kabilarda)gi rasmiy kanallar va guruhlarda muhokamada ishtirokda faollik ko'rsatib qatnashaman, qisman qatnashganman, imkon bo'lsa qatnashaman, qatnashmayman, degan variantlarni tanlash orqali tavsiflandi. Yosh respondentlarning ko'p bo'lmagan 24% ijtimoiy tarmoqlarda(Telegram, Facebook, Instagram va shu kabilarda)gi rasmiy kanallar va guruhlarda muhokamada ishtirokda faollik ko'rsatib qatnashishini bildirgan. Yoshlarning onlayn siyosiy ishtirokda bevosita davlat organlariga murojaat qilish orqali siyosiy jarayonlarda onlayn ishtirok etishga nisbatan, ijtimoiy tarmoqlarda siyosiy masalalar muhokamasida ishtirok etishga moyilligi ularning fuqarolik madaniyati xususiyatlarini ko'rsatadi. Shu o'rinda mazkur savolga javoblarda ijobiy trend sifatida ishtirok shakllari orasida imkon bo'lsa qatnashaman, degan variant nisbatan ko'p tanlangan javoblar 26% davlat organlarining ishonch telefonlari, 25,2% Normativ-huquqiy hujjat loyihalarini muhokamasi portali bo'lgan.

Fuqarolik madaniyatining to'rtinchi o'lchovi bo'lgan ijtimoiy ishonchning yoshlar madaniyatida qay darajada ekanligini baholash uchun sotsiologik so'rovnomada to'g'ridan to'g'ri savol kiritilmagan bo'lsada, "Siyosatga doir yangiliklar, muammo va masalalarni kim bilan muhokama qilasiz?", deb berilgan savolga oila a'zolarim, yaqin do'stlarim hamkasblarim, guruhdoshlarim, sinfdoshlarim, ijtimoiy tarmoqlar(Telegram, Facebook, Instagram va shu kabilarda)dagi guruh va kanallarda, internet saytlarida e'lon qilingan yangiliklarning sharhlarida, degan javoblarga har kuni, har hafta, har oyda, oyda bir martadan kam, hech qachon variantlari taqdim etildi. So'rovnoma ishtirokchilari bo'lgan yosh respondentlar ma'qul ko'rgan javoblar orasida nisbatan ko'p tanlangan 32,7% har kuni oila a'zolarim, 30,8% har kuni yaqin do'stlarim, 34% har kuni hamkasblarim, guruhdoshlarim, sinfdoshlarim bilan siyosatga doir yangiliklar, muammo va masalalarni muhokama qilaman, degan variantlar bo'lgan. Ya'ni, yoshlar siyosiy yangiliklar va masalalarni muhokama qilishda ko'proq o'zi shaxsan tanigan yaqin odamlariga ishonch bildirgan.

Fuqarolik madaniyatining beshinchi mezoni bo'lgan liberal yo'nalish yoshlar siyosiy madaniyatida qanday aks etayotganligi, ularning erkinlik, innovatsion

taraqqiyot, manfaatli hamkorlik qadriyatlarini qanchalik yuqori baholashi bilan belgilab berildi. Sotsiologik so'rov jarayonida yoshlarga jamiyat hayoti bilan bog'liq siyosiy qadriyatlar safida erkinlik, davlat faoliyati bilan bog'liq siyosiy qadriyatlar safida innovatsion taraqqiyot, manfaatli hamkorlikka munosabati so'ralgan. Yosh respondentlarning 55,6% erkinlikni juda muhim qadriyat deb baholab berilgan o'nta qadriyatdan to'rtinchi o'ringa qo'yadi. Innovatsion taraqqiyotni 46,4%, manfaatli hamkorlikni 46,4% respondent juda muhim deb hisoblagan va berilgan o'n bitta qadriyatlar safida to'qqizinchi va o'ninchi o'rinni egallagan.

Xulosa va tavsiyalar (Conclusion/Recommendations): Tahlil qilingan mezonlar bo'yicha yoshlarning munosabatlari va qadriyatli tanlovlarini umumlashtirib ularga xos quyidagi fuqarolik madaniyatining darajasi, xususiyatlarini e'tirof etish mumkin:

- alohida olingan shaxs manfaatlarining davlat va jamiyat manfaatlariga hamohangligi;
- ijtimoiy muammolarni hal etishda davlat va jamiyatning hal qiluvchi ahamiyatga molik roli e'tirof etilishi;
- hokimiyat tuzilmalariga hurmat bilan munosabatda bo'lish an'anasining mavjudligi;
- parlament va boshqa vakillik organlarining ijtimoiy hayotdagi rolga e'tiborli munosabatning mavjudligidan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Civic Culture. International encyclopedia of political science / edited by Bertrand Badie, Dirk Berg-Schlosser, Leonardo Morlino. SAGE Publications, Inc. USA. 2011. –P.243.
2. Алмонд Г., Верба С. Гражданская культура. Политические установки и демократия в пяти странах. 2-е изд., Социум, –М, 2020. -С.52-53.
3. Савва М.В. Власть как фактор гражданской культуры в современной России // Человек. Сообщество. Управление. 2011. № 4. С. 80—91.
4. Омеличкин О.В. Гражданская культура: способы интерпретации. Вестник ЗабГУ. 2016. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/grazhdanskaya-kultura-sposoby-interpretatsii> (murojaat sanasi: 11.10.2023).
5. Қодиров Ф.Й. Фуқаролик жамиятини шакллантиришда фуқаролик маданиятининг ўрни. Academic research in educational sciences. 2022. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/fu-arolik-zhamiyatini-shakllantirishda-fu-arolik-madaniyatining-rni> (murojaat sanasi: 11.10.2023).
6. Бозоров З.А. Фуқаролик маданиятини ривожлантириш – талабаларнинг шахс сифатида шаклланишининг муҳим омили. Халқаро анжуман тезиси. URL: <https://www.intereuroconf.com/index.php/DESH/article/download/1339/1077> (murojaat sanasi: 11.10.2023).

7. Ходжаев Б.Қ. Фуқаролик маданиятининг инсон ҳаёти ва жамият таракқиётидаги ўрни. Образование и инновационные исследования (2022 год №5). URL: <https://www.interscience.uz/index.php/home/article/download/1322/960> (murojaat sanasi: 11.10.2023).
8. Бешић М. Грађанска политичка култура: Србија у Европи. Социолошки преглед, vol. L (2016), no. 3, стр. 299–326. URL: https://www.researchgate.net/publication/320187337_Civic_political_culture_Serbia_in_Europe (murojaat sanasi: 11.10.2023).

References:

1. Civic Culture. International Encyclopedia of Political Science / edited by Bertrand Badie, Dirk Berg-Schlosser, Leonardo Morlino. SAGE Publications, Inc. USA. 2011. -P.243.
2. Almond G., Verba S. The Civic Culture: Political Attitudes and Democracy in Five Nations. 2nd ed., Sotsium, Moscow, 2020. -P.52-53.
3. Savva M.V. Power as a Factor of Civic Culture in Modern Russia // Human. Community. Management. 2011. No. 4. P. 80-91.
4. Omelichkin O.V. Civic Culture: Methods of Interpretation. Bulletin of Transbaikal State University. 2016. No.6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/grazhdanskaya-kultura-sposoby-interpretatsii> (accessed: 11.10.2023).
5. Qodirov F.Y. The Role of Civic Culture in the Formation of Civil Society. Academic research in educational sciences. 2022. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/fu-arolik-zhamiyatini-shakllantirishda-fu-arolik-madaniyatining-rni> (accessed: 11.10.2023).
6. Bozorov Z.A. Development of civic culture as an important factor in shaping students' personalities. International conference abstract. URL: <https://www.intereuroconf.com/index.php/DESH/article/download/1339/1077> (accessed: 11.10.2023).
7. Khodzhaev B.K. The role of civic culture in human life and societal development. Education and Innovative Research (2022 No. 5). URL: <https://www.interscience.uz/index.php/home/article/download/1322/960> (accessed: 11.10.2023).
2. Bešić M. Civic political culture: Serbia in Europe. Sociološki pregled, vol. L (2016), no. 3, pp. 299-326. URL: https://www.researchgate.net/publication/320187337_Civic_political_culture_Serbia_in_Europe (accessed: 11.10.2023).